




XORAZM VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT (dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Xorazm viloyati doimiy aholisi soni 2021- yil 1- oktabr holatiga 1 914,4 ming kishini tashkil etib, 2021- yil boshidan 21,1 ming kishiga yoki 1,1% ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 633,1 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 33,1 %), qishloq aholisi soni 1 281,3 ming kishini (66,9 %) tashkil etdi.




Doimiy aholi sonini hisoblanishi hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.




Doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra)






Shahar va tumanlar kesimida aholi soni (yanvar-sentabr, ming kishi)



Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021-yil 1-oktabr holatiga, viloyat jami aholisiga nisbatan, %)






Shahar va tumanlar kesimida doimiy aholi soni (1-oktabr holatiga, ming kishi)


	2020-y.	2021-y.	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	1884,0	1914,4	101,6
Urganch sh.	144,5	146,1	101,1
Xiva sh.	92,9	94,8	102,0
<i>tumanlar:</i>			
Bog'ot	165,7	168,6	101,8
Gurlan	148,9	151,1	101,5
Qo'shko'pir	172,9	175,1	101,3
Urganch	200,1	204,4	102,1
Hazorasp	194,6	198,0	101,7
Tuproqqa'l'a	55,5	56,1	101,1
Xonqa	187,4	190,5	101,7
Xiva	146,4	148,9	101,7
Shovot	170,8	173,5	101,6
Yangiariq	116,6	118,3	101,5
Yangibozor	87,7	89,0	101,5

Viloyat kesimidagi tahlillarga ko'ra, 2021- yil 1- oktabr holatiga eng ko'p aholi soni Urganch tumanida qayd etilib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 10,7 % ni tashkil etgan, keyingi o'rnlarda Hazorasp tumanida 10,3 %, Xonqa tumanida 10,0 % va Qo'shko'pir tumanida 9,1 % ni tashkil etgan.

Tug'ilganlar soni (2021- yil iyul-sentabr holatiga, kishida)




Tug'ilganlar koeffitsiyenti (yanvar-sentabr holatiga, promille)




Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm. va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha (2021- yil yanvar -sentabr holatiga, kishida)





Asosiy o‘lim sabablari bo‘yicha 1 yoshgacha vafot etganlar (2021- yil yanvar -sentabr holatiga, kishida)




2021- yil yanvar-sentabr oylarida **7030** ta vafot qayd etilgan bo‘lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o‘lim koeffitsiyenti **4,9** promilleni tashkil etdi.



Tuzilgan nikohlar soni (2021- yil iyul- sentabr holatiga, kishida)




Tuzilgan nikohlar koeffitsiyenti (yanvar- sentabr holatiga, promille)




2021- yil yanvar-sentabr oylarida **10538** ta nikoh qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh koeffitsiyenti **7,4** promilleni tashkil etdi hamda 2020-yilga nisbatan **1,5** promillega oshganligi kuzatildi (**2020- yilda 5,9 promilleni tashkil etgan**).



Nikohdan ajrashganlar soni (2021- yil iyul-sentabr holatiga, kishida)




Nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (yanvar-sentabr holatiga, promille)




2021- yil yanvar-sentabr oylarida **1093** ta nikohdan ajrashganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ajralish koeffitsiyenti **0,8** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **0,3** promillega oshganligi kuzatildi (2020- yilda **0,5** promilleni tashkil etgan).

O'lim koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumot (2021- yil yanvar-sentabr, promille)



Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 72,9 % - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 7,3 % - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 % - tug'ma anomaliyalardan, 5,3 % - yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,3 % - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari, 0,3 % - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan va 13,1 % - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2021- yil yanvar-sentabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, % da)





Kasallik sabablari

2021-yil yanvar-sentabr , %

	Qon aylanish tizimi kasalliklari	61,2 %
	O'simtalari	9,3 %
	Baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan	5,4 %
	Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari	3,8 %
	Nafas olish a'zolari kasalliklari	5,5 %
	Yuqumli va parazitar kasalliklari	1,2 %
	Boshqa kasalliklar	13,6 %




Ko'chib kelganlar soni
(2021- yil iyul-sentabr holatiga, kishida)






Ko'chib kelganlar koeffitsiyenti (yanvar-sentabr holatiga, promille)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida **8146** ta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib kelganlar koeffitsiyenti **5,7** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **2,5** promillega oshganligi kuzatildi (2020- yilda **3,2** promilleni tashkil etgan).




Ko'chib ketganlar soni (2021- yil iyul-sentabr holatiga, kishida)





Ko'chib ketganlar koeffitsiyenti (2021-yil yanvar-sentabr holatiga, promille)



2021- yil yanvar-sentabr oylarida **10037** ta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan ko'chib ketganlar koeffitsiyenti **7,0** promilleni tashkil etdi hamda 2020- yilga nisbatan **1,6** promillega oshganligi kuzatildi (**2020- yilda 5,4** promilleni tashkil etgan).



Aholi migratsiyasi

ming kishi

	2020- yil yanvar-sentabr	2021- yil yanvar-sentabr
--	-----------------------------	-----------------------------

Ko'chib kelganlar	3,5	8,1
Ko'chib ketganlar	7,5	10,0
Migratsiya saldosi	-4,0	-1,9

Migratsiya saldosining yuqori darajasi Hazorasp (minus 1,6 ming kishi), Xiva (minus 0,4 ming kishi), Shovot (minus 0,3 ming kishi) tumanlarida qayd etildi.

Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Tuproqqa'l'a tumanida (plus 1,1 ming kishi), Urganch tumanida (plus 0,7 ming kishi) kuzatildi.



Xorazm viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi
tel : (62)2246508